

IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLAR

Qahhorova Mahfuza Ahmadalievna

*Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu dars ishlanmada 8-sinf o‘quvchilariga ona tili fanidan “Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari” mavzusini o‘qitish texnologiyasi interfaol usullar va zamoniy metodlar orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ikkinchi darajali bo‘laklar, og‘zaki va yozma, husnixat, hol, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, gap…

Mavzu: Ikkinchi darajali bo‘laklar

Ta’limiy: o‘quvchilarning gapning ikkinchi darajali bo‘laklari yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash.

Tarbiyaviy: yosh avlod ongi va qalbiga odamiylik, insonparvarlik, vatanparvarlik va insoniylik fazilatlarini singdirish.

T.K.5-Milliy va umummadaniy kompetensiyasini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: mavzu orqali o‘quvchilarni mustaqil tarzda sintaktik tahlilni amalga oshirish, og‘zaki va yozma ko‘nikmasini shakllantirish.

T.K.6- ijtimoiy tarmoqlardan mavzuga doir qo‘srimcha ma’lumotlar haqida xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasini shakllantirish.

Dars turi: mustahkamlash darsi

Dars usullari: savol-javob, mashq bajarish, kichik guruhlarda ishlash, “So‘z yomg‘iri”, “Tasvir va tasavvur”, “Lug‘at orqali tekshirish”, “Konseptual jadval”, “Ijodiy mashq”....

Dars uchun jihozlar: “8-sinf Ona tili” darsligi, slayd taqdimotlari...

Dars shiori: Hamisha yaragil xalq xizmatiga,
Bezak bo‘l olam-u, odam zotiga.


(*Nizomiy Ganjaviy*)

Dars rejasi:

| T/r | Dars rejasi | Vaqti |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| 1 | Tashkiliy qism. “So‘z yomg‘iri” usuli orqali tashkil etiladi. | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tilgan mavzuni so‘rash. “Tasvir va tasavvur” usuli orqali mustahkamlanadi. | 10 daqiqa |
| 3 | Uy vazifasini tekshirib baholash. “Lug‘at orqali tekshirish” | 2 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzu bayoni. “Konseptual jadval” usullari orqali o‘quvchilar bilimi sinaladi. | 15 daqiqa |
| 5 | Mustahkamlash mashqlari. “Ijodiy mashq” usuli, yozma mashq. | 10 daqiqa |
| 6 | Darsni yakunlash. O‘quvchilar bilimini baholash | 3 daqiqa |
| 7 | Uyga vazifa berish. | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, sinf tozaligini kuzatish, o‘quvchilar diqqatini jalg‘ish etish. Bunda “So‘z yomg‘iri” usulidan foydalanamiz. Savollar bulutchalar shaklidagi tarqatmalar ichiga joylashtiriladi. Savollar ona tili, yoki o‘tilgan mavzular asosida bo‘lishi shart emas. Bu usul o‘quvchilar diqqatini jalg‘ishda yordam beradi. Dars tashkil etilgach, uy vazifasi tekshiriladi. Uyga vazifa qilib 147-topshiriqda berilgan hikoyatni o‘qib kelish berilgan edi. Hikoyat yuzasidan qisqa savol-javob, qilinadi, 148-topshiriq uchun lug‘at slaydda ko‘rsatiladi.



Shundan so‘ng yangi o‘tilgan mavzu “**Tasvir va tasavvur**” usuli orqali mustahkamlanadi. Bunda o‘tilgan mavzu matn yaratish haqida bo‘lganligi sababli qisqa matn aytildi. O‘quvchilar unga nom beradi. Qadim zamonda bir o‘g‘ri bo‘lib, u podshohning xazinasiga ustalik bilan o‘g‘rilikka tushadi. O‘g‘ri xazinadagi boyliklarni

o‘g‘irlamoqchi bo‘ladi va uning ko‘zi qopga solingan oppoq narsaga tushadi. Qiziquvchan o‘g‘ri qopdagи oq narsani tatib ko‘radi va hech narsa o‘g‘irlamay chiqib ketadi Xo‘s, bunga qanday nom berasiz? O‘quvchilar javobi umumlashtiriladi Shunda so‘ng mavzu e’lon qilinadi. Sinf uch guruhga bo‘linadi va ularga topshiriq beriladi: birinchi guruh aniqlovchi, ikkinchi guruh to‘ldiruvchi, uchinchi guruh hol bo‘lagi bo‘yicha o‘z ma’lumotlarini aytadilar. Shu tariqa gapning ikkinchi darajali bo‘laklari bo‘yicha o‘zlashtirigan bilimlar takrorlab olinadi. Slayd orqali gap bo‘laklari jadvali namoyish etiladi.

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari quyidagilar:

Aniqlovchi (otga tobe bo‘lib, Qanday? qanaqa? qaysi? nechanchi? nechta? kimning? nimaning? so‘roqlariga javob bo‘ladi. ~~~~~~

To‘ldiruvchi (kesimga tobe kimni? nimani? kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? kim uchun? kim haqida? nima to‘g‘risida? kim bilan? nima bilan? so‘roqlariga javob bo‘ladi . - - - - -

Hol (kesimga tobe qachon? qachongacha? qachondan buyon? qayerda? qayerdan? qayerga? qayergacha? qanday qilib? qay holatda? qancha? nechtadan?

■ nima uchun? qanday maqsadda? nima sababli?. so‘roqlariga javob bo‘ladi

Darslik bilan ishslash:

149-topshiriq. “ULUG’BEKNING SHOGIRDI” matni diqqat bilan o‘qiladi. Bu topshiriq og‘zaki bajariladi. **150-topshiriq** guruhlarda ishslash orqali bajariladi. Matndan ikkinchi darajali bo‘laklar aniqlanib, jadvalga joylashtiriladi. Bunda **“Konseptual jadval”** usulidan foydalanish samara beradi. ushbu mashq yozma savodxonlik orqali yozma bajariladi.

| “Konseptual jadval” usuli. Bunda matndan 2-darajali bo‘laklar topiladi. | | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Aniqlovchi | To’Idiruvchi | Hol |
| Sulton Ulug’bekning, Ali Qushchi degan, shahardan tashqarida yashovchi, dunyoga dong‘i ketgan, shogirdining betobligini eshitgan, sizday ulug‘ bir zotning, tagi past bir, uning, bu, Ulug‘bekning, har qanday, suyukli, hukm | Uni, bunga, buni, o‘zini, shogirdini, tuzalib kelishini, yo‘l libosini, fikringizdan, ilm ahlini, sulton-u xonlarga, saroy tabibini, shogirdimni, qat’iyligini | Shunchalik, bilmaganlikka solib, bir kuni, onasinikiga, odam yubortirib, bu yerga, darhol, shunda, shogird bolani ko‘rgani, kulbasiga, bu gapni eshitib, vaqtivaqt bilan, tez, yo‘ldan, yo‘lga |

159-mashq. Berilgan so‘zlardan foydalanib, matndagi aniqlovchilarini sinonimlari bilan almashtiriladi.

Bir kuni Ali Qushchi shahardan tashqarida yashovchi onasinikiga borib, kasalga chalinib qolibdi.Oliy hazrat, sizday ulug‘ bir zotning tagi past bir shogird bolani ko‘rgani uning kulbasiga borishingiz qanday bo‘larkin?Ulug‘bek uni shunchalik yaxshi ko‘rib, hurmat qilganki, bunga boshqalar hasad qilisharkan. Kimsan dunyoga dong‘i ketgan sulton shogirdini borib ko‘rarmikan yo tuzalib kelishini kutarmikan... Hukm qat’iyligini anglab, hamma yo‘lga otlanibdi.Bir kuni Ali Qushchi shahardan tashqarida istiqomat qiluvchi onasinikiga borib, kasalga chalinib qolibdi. Ulug‘ hazrat, sizday buyuk bir zotning tagi past bir shogird bolani ko‘rgani uning kulbasiga borishingiz qanday bo‘larkin? Ulug‘bek uni shunchalik yaxshi ko‘rib, hurmat qilganki, bunga o‘zgalar hasad qilisharkan. Kimsan dunyoga mashhur sulton shogirdini borib ko‘rarmikan yo tuzalib kelishini kutarmikan...Farmon qat’iyligini anglab, hamma yo‘lga otlanibdi.

Mavzuni mustahkamlashda 151-topshiriqni bajaramiz. Bunda matnning umumiyl xulosasi topiladi.

1. Ulug‘bek – fuqaroparvar sulton.
2. Ilm va ma’rifat homiysining zakovati.
3. Ali Qushchi – Ulug‘bekning sevimli shogirdi.

152-topshiriq. Matn bilan tanishiladi va unga sarlavha tanlanadi. Ushbu topshiriq ham mavzuni mustahkamlash qismida og‘zaki bajariladi.

Bir kuni Farobiydan so‘radilar:

– Kimning bilimi kuchliroq: senikimi yo Arastunikimi?

Farobiy shunday javob qaytardi:

– Men o‘sha zamonda yashab, u bilan uchrashganimda va uning qo‘lida tahsil olganimda edi, uning eng yaxshi shogirdlari safidan joy olgan bo‘lardim.

Tavsiya etilgan sarlavhalar: Farobiyning javobi, Munosib javob, Eng yaxshi shogird, Arastuning eng yaxshi shogirdi

153-topshiriq. Matndan to‘ldiruvchilar ajratib yoziladi: Farobiydan, u bilan.Bunda “Ijodiy mashq” usulidan foydalanamiz.

Savollar: 1. Ulug‘bekning sevimli shogirdi kim?

2. Nega odamlar unga hasad qilishadi?

3. Ulug‘bek hasadgo`ylarga nisbatan qanday yo‘l tutdi?

4. Farobiyning javobiga qanday munosabat bildirasiz?

Mustaqil ish uchun qo‘srimcha topshiriq. Berilgan hikmatli so‘zlarni hol bilan kengaytiring.

1. G‘am-qayg‘u ham, huzur-halovat ham aqldandir. Ulug‘vorlik va buzilish ham aqldandir.

2. Sen donishmandning mana bu so‘zlarini tinglagenmisan? U haqiqatsevarlarga shunday ta’lim beradi: “O‘ylamasdan qadam bosib, xatoga yo‘l qo‘ygan kishi pushaymon bo‘ladi. U donolar nazdida ahmoqqa, yaqinlari nazdida begonaga aylanadi”.

3. Olamda eng avval inson aqli yaralgan. Aql qalb posbonidir. Aql yana uch qo‘riqchi: til, ko‘z, qulqoning ustidan ham posbonlik qilguvchidir. Zero, ezgulik va yovuzlik aynan ana shu uch a’zo orqali qalbga kirib boradi.

(A. Firdavsiy)

Dars so‘ngida o‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi. Mavzu xulosalanadi.

Uyga vazifa: 154-topshiriq.

- 1) shayxulislom - islom dini bo‘yicha eng yuksak maqomdagi olim;
- 2) tolibi ilm - talaba; bilim egalayotgan kishi;